

**“Hududgazta’minot” AJning 2023 yilga mo’ljallangan
ISH REJA IJROSI**

№	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Muddat	Mas’ullar	Amalga oshirilgan ishlar
1.	<p>Tabiiy va suyultirilgan gaz resurslari taqsimoti asosida iste’molchilarni bir maromda tabiiy va suyultirilgan gaz bilan ta’minlash.</p>	<p>Iste’molchilarga 2023 yilda 22 564,6 mln kub m tabiiy (shundan aholiga – 12 300,0 mln kub m, ulgurjiga – 10 264,6 mln kub m) hamda 683,1 ming tonna suyultirilgan gaz (prognozga nisbatan 101,7 %, o’sish sur’ati 111,1 %) yetkazib yetkazib berish.</p>	2023 yil	<p>Boshqaruv raisining o’rinbosarlari (Saidvaliyev, Turdiyev, Turdibayev) Tegishli boshqarma va bo’lim hamda hududiy gaz ta’minoti filiallari rahbarlari</p>	<p>Iste’molchilarga 2023 yilda jami 20 373,4 mln kub metr tabiiy (shundan aholiga 10 665,8 mln kub metr, ulgurjiga 9 717,6 mln kub metr) hamda 626,2 ming tonna suyultirilgan gaz yetkazib berildi.</p>
2.	<p>Tabiiy gaz ta’minoti tizimini 2023-2024 yillar kuz-qish mavsumiga tayyorlash.</p>	<p>1. Tasdiqlangan reja asosida gaz tarmoqlarining 150,3 km qismini mukammal ta’mirlash va rekonstruksiya qilish. 2. 64 ming dona gaz taqsimlash punktlarining texnik taftishdan o’tkazib, 250 donasini mukammal ta’mirlash. 3. Gaz quvurlarining 6,3 ming km qismini bosim ostida zichlikka sinash va havo bosimi yordamida tozalash. 4. Yer osti gaz quvurlarining 16,7 ming km qismini pribor yordamida tekshirish hamda aniqlangan kamchiliklarni bartaraf etish, shuningdek, yer osti gaz tarmoqlariga o’rnatilgan 114 dona elektr kimyoviy himoya qurilmalarini joriy va mukammal ta’mirlash. 5. Gaz quvurlarining 6 ming km qismini bo’yoqlash va estetik jihatdan tartibga keltirish. 2022-2023 yillar kuz-qish mavsumi davrida hududlarda kuzatilgan vaziyatlarni inobatga olib, chora-tadbirlarga o’zgartirishlar kiritiladi.</p>	2023 yil 1 oktabr	<p>Boshqaruv raisining o’rinbosari (Turdiyev), Tabiiy gaz ta’minoti obektlaridan samarali foydalanish boshqarmasi (Onorbayev), Qurilish va ta’mirlesh boshqarmasi (Raxmanov), Hududiy gaz ta’minoti filiallari rahbarlari</p>	<p>Kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik doirasida 287,0 km (120%) quvurlar ta’mirlandi va 242,3 km (100%) yangi gaz tarmoqlari qurildi, 6,3 ming km (104%) qismi bosim ostida zichlikka sinaldi, 6,7 ming km (113%) yer osti quvurlar pribor usulida tekshirildi. Yer ostidagi 85,1 km quvurlar yer ustiga chiqarilib, qo’shimcha 268 dona kompensatorlar o’rnatildi, 3,1 ming km (118%) uzunlikdagi quvurlar estetik tartibga keltirildi. Tizimdagi 62,8 ming ta (100%) gaz taqsimlash punktlari texnik taftishdan o’tkazilib, ularning 250 tasi (102%) mukammal ta’mirlandi.</p>

№	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Muddat	Mas'ullar	Amalga oshirilgan ishlar
3.	Yangi aholi yashash massivlari, ijtimoiy-iqtisodiy tarmoqlarni gazlashtirish, jumladan maxsus iqtisodiy va kichik sanoat zonalari hamda yirik investitsiya obektlari uchun yangi gaz tarmoqlarini qurish.	<p>Yangi aholi yashash massivlari, ijtimoiy-iqtisodiy tarmoqlarni gazlashtirish, jumladan maxsus iqtisodiy va kichik sanoat zonalari hamda yirik investitsiya obektlari uchun jami 156 km yangi gaz tarmoqlari qurib, foydalanishga topshirish. Jumladan:</p> <ul style="list-style-type: none"> - uy-joylar va ijtimoiy soha obektlariga tasdiqlangan loyiha-smeta hujjatlari va dastlabki hisob-kitoblarga asosan jami 47,1 km tashqi tabiiy gaz tarmoqlarini qurish; - hududlardagi 39 ta, shundan 2 ta maxsus iqtisodiy zona, 36 ta kichik, yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalari hamda 1 ta yirik ishlab chiqarish korxonasi uchun jami 77,8 km, shuningdek, "Ohangaron Tech Industrial" texnoparkiga 7,0 km, "Termiz" erkin iqtisodiy zonasiga 7,8 km hamda Buxoro viloyati Olot tumanida tashkil etilayotgan sanoat zonalari va ishlab chiqarish korxonalarini uchun qolgan 16,0 km tashqi gaz tarmog'ini qurilish ishlarini yakunlash. 	2023 yil	Boshqaruv raisining o'rinbosari (Turdiyev), Qurilish va ta'mirlash boshqarmasi (Raxmanov), Hududiy gaz ta'minoti filiallari rahbarlari	Yangi aholi yashash massivlari, ijtimoiy-iqtisodiy tarmoqlarni gazlashtirish uchun jami 242,3 km shundan, uy joylar va ijtimoiy soha obektlariga 129,3 km , ishlab chiqarish va sanoat korxonlariga 113,0 km tashqi gaz tarmoqlari qurildi.
4.	Gaz tarmoqlari va obektlarining geoinformatsiya tizimini joriy etish.	1. Hududiy gaz ta'minoti filiallari tasarrufidagi 1 910 ta metrologik obyekt (hududlararo elektron gaz hisoblagich)larni joylashgan o'rnini bo'yicha elektron topografik xaritasi va atributiv ma'lumotlari (ArcGIS ma'lumotlar bazasida) shakllantirish.	2023 yil	Boshqaruv raisining o'rinbosari (Turdiyev), Kadastr bo'limi (Mansurov) Tegishli hududiy gaz ta'minoti filiallari rahbarlari	Iste'molchilarga texnik shartlarni berish uchun tarmoqlarni raqamli interaktiv xaritasi yaratildi. Jumladan: <ul style="list-style-type: none"> - 1 910 ta (100%) metrologik obyektlarni joylashgan o'rnini bo'yicha elektron topografik xaritasi shakllantirildi. - demontaj qilingan 16 400 ta gaz

№	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Muddat	Mas'ullar	Amalga oshirilgan ishlar
		<p>2. Tabiiy gaz ta'minotini modernizatsiya qilish loyixasi asosida gaz tarmoqlarining 2 bosqichli tizimga o'tkazilishi hisobiga demontaj qilingan 16 400 ta gaz taqsimlash punktlarini ArcGIS ma'lumotlar bazasidan chiqarish hamda gaz tarmoqlar toifasini past bosimdan, o'rta bosimga o'zgartirish.</p>			<p>taqsimlash punktlari ArsGIS ma'lumotlar bazasidan chiqarilib, gaz tarmoqlari toifasini past bosimdan o'rta bosimli maqomiga o'zgartirildi.</p>
5.	<p>Investitsiya dasturlari doirasida mablag'larni o'zlashtirish bo'yicha prognoz ko'rsatkichlar ijrosini ta'minlash.</p>	<p>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 dekabrda "O'zbekiston Respublikasining 2023-2025 yillarga mo'ljallangan investitsiya dasturini amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-459-son qaroriga asosan jami 55,8 mln.dollar, shu jumladan:</p> <ul style="list-style-type: none"> - 2022-2024 yillarda gaz ta'minoti tizimini modernizatsiya va rekonstruksiya qilish loyihasi doirasida 27,0 mln.dollar; - o'rta va past bosimli gaz tarmoqlaridan metan tashlanmalarini qisqartirish loyihasi doirasida 3,0 mln.dollar; - Tabiiy gaz nazorati va hisobining avtomatlashtirilgan tizimini joriy etish loyihasi doirasida 25,8 mln.dollar; 	2023 yil	<p>Boshqaruv raisining o'rinbosarlari (Saidvaliyev, Turdibayev) Biznesni strategik rivojlantirish, investitsiya hamda tejamkor texnologiyalarni joriy etish va foydalanishni targ'ibot qilish bo'limi (Rustamova)</p>	<p>O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 dekabrda 459-son qaroriga asosan 3 ta investitsiya loyihasi doirasida jamiyat mablag'lari, mahalliy tijorat banklari va xorijiy moliya institutlari kreditlari hisobidan 64,1 mln dollar (115%) mablag' o'zlashtirildi. Xususan:</p> <ul style="list-style-type: none"> - ASKUG loyihasi doirasida 27,5 mln dollar (106,6%) kredit mablag'lari; - "Gaz tarmoqlaridan metan tashlanmalarini qisqartirish" loyihasi doirasida 3,3 mln dollar (110%) to'g'ridan – to'g'ri investitsiyalar; <p><i>Ma'lumot uchun. Texnologik jarayonlardagi yo'qotishlar 10,3 mln kub metrga qisqartirildi hamda 250 ta yangi ish o'rinlari yaratildi va 16 xil turdagi xalqaro standartlarga javob beruvchi material va zamonaviy qurilmalar jalb qilindi.</i></p> <ul style="list-style-type: none"> - "2022-2024 yillarda gaz ta'minoti tizimini modernizatsiya va rekonstruksiya qilish" loyihasi doirasida 31,6 mln dollar (122,5%) jamiyat mablag'lari.

№	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Muddat	Mas'ullar	Amalga oshirilgan ishlar
6.	<p>“2022-2024 yillarda gaz ta’minoti tizimini modernizatsiya va rekonstruksiya qilish” investitsiya loyihasini amalga oshirish ishlari boshlash.</p>	<p>Respublika gaz ta’minoti tizimini keyingi rivojlanish bosqichlari doirasida “2022-2024 yillarda gaz ta’minoti tizimini modernizatsiya va rekonstruksiya qilish” investitsiya loyihasini amalga oshirish ishlari boshlash hamda loyiha doirasida:</p> <ul style="list-style-type: none"> - gaz quvurlarining 150,3 km qismini mukammal ta’irlash va rekonstruksiya qilish hamda 2,6 mingta gaz taqsimlash punktlari modernizatsiya qilib, shundan 1,3 mingta obektlarda telemetriya tizimi joriy etish; - 306,2 mingta xovli uylarda 2 bosqichli gaz ta’minoti tizimi joriy etib, texnologik yo’qotishlar hajmi 1,8 mln kub metrga qisqartirish; - gaz sizib chiqish holatlarini masofadan aniqlovchi 2 ta mobil laboratoriya, 200 ta elektroskuter, 2 ta uchuvchisiz uchish apparati (dron), georadar va masofaviy gaz detektorlar hamda zarur jihozlarni xarid qilish. 	2023 yil	<p>Boshqaruv raisining o’rinbosarlari (<i>Saidvaliyev, Turdiyev, Turdibayev</i>) Biznesni strategik rivojlantirish, investitsiya hamda tejamkor texnologiyalarni joriy etish va foydalanishni targ’ibot qilish bo’limi (<i>Rustamova</i>), Tabiiy gaz ta’minoti obektlaridan samarali foydalanish boshqarmasi (<i>Onorbayev</i>), Qurilish va ta’irlash boshqarmasi (<i>Raxmanov</i>), “Hududgaz Komplektatsiya” UK (<i>Lutfullayev</i>) <i>Hududiy gaz ta’minoti filiallari rahbarlari</i></p>	<p>2022-2024 yillarda gaz ta’minoti tizimini modernizatsiya va rekonstruksiya qilish” loyihasi doirasida 31,6 mln dollar (122,5%) jamiyat mablag’lari o’zlashtirildi.</p> <p>Tasdiqlangan reja muvofiq, Dastur doirasida 287,0 km (120%) quvurlar ta’irlandi hamda yer osti gaz quvurlarining texnik holatini va gaz sizib chiqishni aniqlovchi 37 ta “Variotek” va 1 000 ta ko’chma (portativ) gaz analizatorlari hamda 5 ta mobil laboratoriya xarid qilinib, ushbu qurilmalar bo’yicha xodimlar o’quvini tashkil etilib, malakasi oshirildi.</p> <p>2 bosqichli gaz ta’minotidagi xonadonlar 951 mingtaga va bunda texnologik yo’qotishlar hajmi qisqarishi yillik 80 mln kub metrga yetkazildi.</p>
7.	<p>Atmosferaga issiqxona gazlari chiqishini kamaytirish hamda bosqichma-bosqich “Yashil iqtisodiyot”ga o’tish choralarni ko’rish.</p>	<ol style="list-style-type: none"> 1. Investitsiya kelishuvini imzolash. 2. Texnik-iqtisodiy asosini ishlab chiqib, tasdiqlash. 3. Kelishuv doirasida issiqxona gazlari tashlanmasining me’yorini belgilash, uglerod kvotasini narxlash va kvota savdosi bo’yicha hujjatlarni rasmiylashtirish hamda xorijiy korxonalar bilan shartnomalar 	2023 yil mart	<p>Boshqaruv raisining o’rinbosari (<i>Turdibayev</i>), Rejalashtirish va korporativ munosabatlar boshqarmasi (<i>Turovov</i>), Biznesni strategik rivojlantirish, investitsiya hamda tejamkor texnologiyalarni joriy etish</p>	<p>“Hududgazta’minot” AJ, “EcoCarbonServices” MChJ va “Gas Greyen Asia” MChJ o’rtasida investitsiya kelishuvi joriy yilning 7 mart kuni imzolaniib, O’zbekiston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vazirligining reyestridan o’tkazildi.</p> <p>Gaz tarmoqlarida metan tashlanmalarini qisqartirish loyihasini amalga oshirish</p>

№	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Muddat	Mas'ullar	Amalga oshirilgan ishlar
		imzolash.		va foydalanishni targ'ibot qilish bo'limi (Rustamova)	<p>orqali issiqxona gazlarining atrof-muhitga salbiy ta'sirini kamaytirish va "yashil iqtisodiyot"ga o'tish maqsadida, pilot loyiha sifatida Toshkent shahri va viloyatida ishlar amalga oshirilmoqda.</p> <p>Loyiha doirasida, texnologik jarayonlardagi yo'qotishlar 10,3 mln kub metrga qisqartirildi hamda 250 ta yangi ish o'rinlari yaratildi va 16 xil turdagi xalqaro standartlarga javob beruvchi material va zamonaviy qurilmalar jalb qilindi.</p>
8.	Iste'molchilarga tabiiy gaz yetkazib berishni «gaz taqsimlash stansiyasi — tuman (shahar) chegarasi — yirik uchastkalarining kirish qismi — iste'molchi» texnologik zanjiri asosida tuman (shahar)lar chegarasidagi quvurlarga elektron hisoblagichlarni o'rnatish ishlarini yakunlash.	<p>1. Tuman (shahar)lar chegarasidagi quvurlarga jami 1,8 mingta elektron hisoblagichlar va modem qurilmalari o'rnatish ishlarini yakunlash.</p> <p>2. Hisoblagichlarni o'rnatilgan modem qurilmalari yordamida "Askugbalans" dasturiga integratsiya qilish.</p> <p>3. Gaz taqsimlash stansiyalaridan olingan va iste'molchilarga yetkazib berilgan tabiiy gaz hajmlarini tahlil qilish va balans ko'rsatkichlarini shakllantirish.</p>	2023 yil	<p>Boshqaruv raisining o'rinbosari (Turdiyev), Tabiiy gaz ta'minoti obektlaridan samarali foydalanish boshqarmasi (Onorbayev), Metrologiya boshqarmasi (Odilov), Sifrovizatsiya ofisi (Kamilov), "Hududgaz Komplektatsiya" UK (Lutfullayev), <i>Hududiy gaz ta'minoti filiallari rahbarlari</i></p>	<p>Tuman (shahar)lar chegarasidagi quvurlar optimallashtirilgan holda 777 ta bo'lindi hamda ularga jami 1 461 ta elektron hisoblagichlar o'rnatildi.</p> <p>Shuningdek, "Askugbalans" dasturi ishga tushirildi va "gaz taqsimlash stansiyasi - tuman (shahar) chegarasi - yirik uchastkalar kirish qismi — iste'molchi" prinsipi asosida tabiiy gaz balansini shakllantirish uchun hududlar o'rnatilgan elektron gaz hisoblash uskunalari "onlayn" monitoring qilish imkoniyati yaratildi.</p>
9.	Tizimda qayta tiklanuvchi energiya manabalariga moslashtirilgan texnologiyalarni	1. Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi doirasida tasdiqlangan "2022-2024 yillarda gaz ta'minoti filiallarida energiya resurslarini tejash bo'yicha chora-tadbirlar	2023 yil	<p>Boshqaruv raisining o'rinbosarlari (Saidvaliyev, Turdibayev), Biznesni strategik rivojlantirish, investitsiya</p>	<p>Qayta tiklanuvchi energiya manbalariga moslashtirilgan texnologiyalarni joriy etilishi natijasida tabiiy gaz iste'moli 321,8 ming metr kub</p>

№	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Muddat	Mas'ullar	Amalga oshirilgan ishlar
	keng joriy etish.	<p>dasturi”ga muvofiq, 75,4 ming.kVt.soat elektr energiyasi, 299,2 ming kub metr tabiiy gaz hajmlari hamda 19,7 tonna neft mahsulotlarini iqtisod qilish prognoz ko'rsatkichlari ijrosini ta'minlash.</p> <p>2. Gaz ta'minoti filiallari ma'muriy binolariga 28 komplekt geliokollektor, 13 dona 10 kVt va 1 dona 100 kVt quvvatga ega quyosh fotoelektr stansiyalari hamda gaz to'ldirish inshootlariga tashqi yoritish tizimi uchun 250 ta (100 Vt quvvatli) quyosh panellarini o'rnatish;</p> <p>3. Gaz hisoblagichlari uchun mo'ljallangan 304 dona 50 Vt quyosh panellarini o'rnatish.</p>		<p>hamda tejamkor texnologiyalarni joriy etish va foydalanishni targ'ibot qilish bo'limi (<i>Rustamova</i>), “Hududgaz Komplektatsiya” UK (<i>Lutfullayev</i>), <i>Hududiy gaz ta'minoti filiallari rahbarlari</i></p>	<p>(111%)ga, elektr-energiyasi 189,0 ming kVt soat (236%)ga va neft mahsulotlari 21,9 tonna (112%)ga qisqartirildi.</p> <p>Gaz ta'minoti filiallari ma'muriy binolariga 13 dona 10 kVt va 1 dona 100 kVt quvvatga ega quyosh fotoelektr stansiyalari va yirik hududlardagi hisoblagichlarga 304 dona (50 Vt) quyosh panellari o'rnatildi.</p>
10.	Suyultirilgan gaz to'ldirish inshootlarini modernizatsiya qilish.	<p>1. Gaz to'ldirish inshootlarining uzluksiz faoliyatini ta'minlash maqsadida, 11 dona dizel generatorlari o'rnatish hamda tashqi yoritish tizimi va binolarda energiya iste'moli uchun qayta tiklanuvchi energiya manbalari, jumladan quyosh panellaridan foydalanish tizimini joriy etish;</p> <p>2. “Uchko'prik” gaz to'ldirish inshootiga 1 dona zamonaviy energotejamkor kompressor va “Urganch” gaz to'ldirish stansiyasiga 1 dona avtotarozi o'rnatish;</p>	2023 yil	<p>Boshqaruv raisining o'rinbosari (<i>Turdiyev</i>), Suyultirilgan gaz ta'minoti obektlaridan samarali foydalanish boshqarmasi (<i>Mannanov</i>), “Hududgaz Komplektatsiya” UK (<i>Lutfullayev</i>), <i>Tegishli hududiy gaz ta'minoti filiallari rahbarlari</i></p>	<p>1. Suyultirilgan gaz to'ldirish inshootlarida elektr-energiyasi uzluksizligini ta'minlash uchun 11 dona dizel generatorlari o'rnatildi.</p> <p>2. “Uchko'prik” gaz to'ldirish inshootiga 1 dona zamonaviy energotejamkor kompressor o'rnatildi va foydalanishga topshirildi.</p> <p>3. “Urganch” va “Samarqand” gaz to'ldirish stansiyasilarida 1 donadan avtotarozilari xarid qilindi.</p> <p>4. “Samarqand” gaz to'ldirish stansiyasida 15 dona ikki tomonlama maishiy gaz ballonlariga suyultirilgan gaz to'ldirish imkoniyatiga ega xarid qilingan kolonkalarni o'rnatish va hamda ma'muriy</p>

№	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Muddat	Mas'ullar	Amalga oshirilgan ishlar
		<p>3. Gaz to'ldirish inshootlaridagi barcha kuzatuv kameralarini optik tolali internet tizimiga ulash;</p> <p>4. “Samarqand” gaz to'ldirish stansiyasini texnologik asbob-uskunalarini to'liq modernizatsiya qilish ishlarini yakunlash hamda maishiy gaz ballonlarini ta'mirlash va sinovdan o'tkazish sexlarini modernizatsiya qilish;</p> <p>5. Inshootlarda texnika xavfsizligini yanada kuchaytirish uchun bosim ostida ishlovchi qurilma (suyutirilgan gaz to'kib olish, gaz ballonlariga to'ldirish shlanglari hamda maxsus prujinali klapan)larni davriy sinovdan o'tkazish amaliyotini yo'lga qo'yish.</p>			<p>binoni ta'mirlash ishlari yakunlandi.</p> <p>5. Inshootlarda bosim ostida ishlovchi qurilmalarni davriy sinovdan o'tkazish amaliyotini yo'lga qo'yish uchun kerakli uskunalarni xarid qilish choralari ko'rilmogda.</p>
11.	Iste'molchilarning maishiy gaz ballonlariga bo'lgan ehtiyojidan kelib chiqib, qo'shimcha maishiy gaz ballonlari bilan ta'minlash.	<p>1. Iste'molchilarning maishiy gaz ballonlariga bo'lgan ehtiyojini o'rganib, ro'yxatini shakllantirish;</p> <p>2. Ro'yxat asosida maishiy gaz ballonlarini xarid qilish, jumladan suyultirilgan gazdan tabiiy gazga qayta o'tkazilgan xonadonlardan qaytarib olingan maishiy gaz ballonlari va ID-kartalarni ehtiyojga ko'ra iste'molchilarga yetkazib berish.</p>	2023 yil	<p>Boshqaruv raisining birinchi o'rinbosari (Saidvaliyev), Suyultirilgan gazni sotish boshqarmasi (Imomxodjayev), Hududiy gaz ta'minoti filiallari rahbarlari</p>	<p>Iste'molchilarning maishiy gaz ballonlariga bo'lgan ehtiyojidan kelib chiqib, qo'shimcha 63,4 ming dona (181%) maishiy gaz ballonlar yetkazib berildi.</p> <p>Jumladan, Andijonga 12,2 mingta, Jizzaxga 9,6 mingdan, Toshkent viloyatiga 6,9 mingta, Samarqandga 9,9 mingta, Buxoroga 2,8 mingta, Navoiyga 2,5 mingta, Namanganga 4,2 mingta, Surxondaryoga 3,9 mingta, Qashqadaryoga 4,5 mingta, Farg'onaga 5,4 mingta, Xorazmga 1,0 mingta, Sirdaryoga 500 ta qo'shimcha yetkazib berildi.</p>

№	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Muddat	Mas'ullar	Amalga oshirilgan ishlar
12.	Gaz ta'minoti tizimini transformatsiya qilish jarayonlari bosqichma-bosqich amalga oshirish.	Osiyo taraqqiyot banki tomonidan berilgan tavsiyalar asosida Jamiyat tasarrufidagi "Hududgaz Logistika" UK optimizatsiya qilish yo'li bilan Jamiyat ijro apparatiga integratsiya qilish.	2023 yil fevral	Boshqaruv raising o'rinbosari (<i>Turdibayev</i>), Rejalashtirish va korporativ munosabatlar boshqarmasi (<i>Turovov</i>)	"Hududgazta'minot" AJ yagona aksiyadorining 2022 yil 31 dekabrda 34-son qarori bilan "Hududgaz Logistika" UK optimizatsiya qilish yo'li bilan Jamiyat ijro apparatiga integratsiya qilindi.
13.	Tovar va xizmatlar xaridi bilan bog'liq jarayonlarni markazlashgan holda nazoratini tashkillashtirish.	1. Xarid qilingan tovar va xizmatlarni yagona markirovkasini yaratish (QR-kod yordamida) hamda xarid jarayonlarini to'liq raqamlashtirish ; 2. Yetkazib beruvchilar bilan tuzilgan shartnomalar qonun talablariga asosan tuzilganligi va rasmiylashtirilganligini nazorat qilish hamda shartnomalar shartlarini o'z vaqtida bajarmagan tadbirkorlik subektlari bo'yicha elektron tovar birjalariga murojaat qilish.	2023 yil aprel	Boshqaruv raising o'rinbosari (<i>Turdibayev</i>), Xaridlar transformatsiya ofisi (<i>Xusanov</i>)	Xarid jarayonlarini raqamlashtirish maqsadida "Ta'minot" dasturi ishga tushirildi va barcha hududiy gaz ta'minoti filiallarining tegishli mas'ul xodimlariga shaxsiy kabinet ochib berildi. Tovar va xizmatlar bo'yicha buyurtmalar faqat "Ta'minot" dasturi bo'yicha qabul qilinishi bo'yicha filiallarga ogohlantirish xati yuborildi. Yetkazib beruvchilar bilan tuzilgan shartnomalar qonun talablariga mos kelishi ustidan doimiy nazorat o'rnatilib, barcha turdagi buyurtmalar tegishli boshqarmalar bilan o'rganilib chiqilgandan keyin xarid qilish jarayonlarini amalga oshirish uchun "Hududgaz Komplektatsiya" UKga buyurtma berish tizimi yo'lga qo'yildi.
14.	Sohada ilmiy-texnik faoliyatni rivojlantirish va xalqaro standartlar bo'yicha zamovaniy va ilg'or tajribalarni amaliyotga joriy etish.	1. Tabiiy va suyultirilgan gaz taminoti buyicha 37 ta ilmiy-texnik hujjatlarni ishlab chiqish. 2. Tizimda ISO-50001 xalqaro standartini bosqichma-bosqich joriy etish, jumladan hududiy gaz ta'minoti filiallarini energiya auditdan o'tkazish.	2023 yil	Boshqaruv raising o'rinbosarlari (<i>Saidvaliyev, Turdiyev, Turdibayev</i>), "Hududgaz Konsalting" MChJ (<i>Karimova</i>)	2023 yilda 105 ta normativ va ilmiy-texnik hujjatlar ishlab chiqildi. Shuningdek, tizimda ISO-50001 xalqaro standartini bosqichma-bosqich joriy etish uchun 12 ta hududiy gaz ta'minoti filiallari energiya auditdan o'tkazildi.
15.	Respublika hududlarida turmushda gazdan xavfsiz foydalanish va sodir	1. Gazdan foydalanish bilan bog'liq favqulodda holatlar, jumladan is gazidan zaharlanish, gaz-havo aralashmasining chaqnashi va	Doimiy	Boshqaruv raising o'rinbosari (<i>Turdiyev</i>), Mehnatni muxofaza qilish, Fuqaro muxofazasi,	Gaz bilan bog'liq baxtsiz xodisalarni oldini olish yuzasidan tegishli vazirlik va idoralar bilan hamkorlikda tushuntirish va keng

№	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Muddat	Mas'ullar	Amalga oshirilgan ishlar
	<p>bo'lishi mumkin bo'lgan favqulodda holatlarni oldini olish bo'yicha fuqarolar gavjum bo'lgan guzar, bozor, mahallalar va boshqa markazlarda, shu jumladan ommaviy axborot vositalari orqali fuqarolarga gazdan foydalanishda xavfsizlik qoidalariga rioya qilish lozimligi yuzasidan tushuntirish tadbirlarini yanada kuchaytirish.</p>	<p>yong'inlar bilan bog'liq hodisalarni oldini olish bo'yicha xududlarda ishchi guruhlar faoliyatini yanada kuchaytirish;</p> <p>2. Fuqarolar gavjum guzar, bozor, mahallalar va boshqa markazlarda seminar va suhbatlar tashkil etish;</p> <p>3. Ommaviy axborot vositalari orqali xavfsizlikni targ'ib qiluvchi videomaterial va chiqishlar keng yoritib borilishini ta'minlash, jumladan avariyaviy holatlar va tizimli o'chirishlar bo'yicha iste'molchilarni oldindan ogohlantirib borish;</p> <p>4. Aholiga turmushda gazdan xavfsiz foydalanish bo'yicha eslatma va bukletlar tarqatish va uy ichi xizmatchilari tomonidan xonadonlarda uy egalari hamda yashovchi fuqarolarga tushuntirish ishlarini olib borish.</p> <p>5. Texnik nosoz jihozlar yoki o'rnatilgan jihozlarning texnik shartlarga to'g'ri kelmaslik holatlari, ya'ni noxush holatlarni keltirib chiqarish ehtimoli bo'lgan vaziyatlarda tezkor choralar ko'rish. Bunda, aholi xonadonlari (ko'p qavatli, xovli joylar va cheka qishloqlardagi uylar)da isitish pechlar va qozonlarini yoqiladigan tarafini bino devorining tashqi tomoniga yoki alohida boshqa xonaga o'rnatish amaliyoti xavfsizlikni</p>		<p>Sanoat xavfsizligi, Favqulodda vaziyatlarni o'rganish va ularni oldini olish boshqarmasi (Qayumov), Servis xizmatini rivojlantirish bo'limi (Do'stov), Matbuot kotibi (Mametova), <i>Hududiy gaz ta'minoti filiallari rahbarlari</i></p>	<p>targ'ibot ishlari tashkil etilgan.</p> <p>Hududlarda 878 ta ishchi guruhlar tashkil etilib, o'tkazilgan tadbirlarda 2,5 mln aholi xonadonlari (1,95 mln xovli va 542,1 ming ko'p qavatli) va 11,5 mingdan ortiq ijtimoiy soha ob'ektlarida o'rganishlar o'tkazildi.</p> <p>Ijtimoiy tarmoqlarda 4 674 ta, aholi gavjum joylarda va radio eshittirishlar orqali esa 1 956 ta chiqishlar qilinib, gazdan to'g'ri foydalanish bo'yicha tushuntirishlar berildi. Aholiga 1 340,5 mingdan ortiq eslatma-bukletlar tarqatildi.</p> <p>Ijtimoiy soha obyektlari, korxonalar va tashkilotlar hamda mahalla fuqarolar yig'inlarida isitish mavsumi davrida gaz bilan bog'liq baxtsiz hodisalarni oldini olish bo'yicha 7,9 mingdan ortiq seminar va suhbatlar tashkil etildi hamda aholi gavjun joylarda 302 ta bannerlar o'rnatildi.</p> <p>Hududlarning o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib, mahalla faollari, faxriylar, taniqli madaniyat va san'at arboblari hamda jurnalist va blogerlar ishtirokida 891 ta videorolik hamda 346 ta maqolalar ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy tarmoqlar orqali yoritilmoqda.</p> <p>Joylardagi 14 ta hududiy gaz ta'minoti filiallari tasarrufidagi barcha 207 ta tuman (shahar)gaz bo'limlarining xar birida alohida "Xavfsiz Gaz" telegram guruhlarini tashkil etildi.</p>

№	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Muddat	Mas'ullar	Amalga oshirilgan ishlar
		to'liq ta'minlash garovi ekanligini tushuntirish.			<p>Telegram guruhlar orqali gazdan foydalanishda xavfsizlik qoidalariga rioya etmaslik qanday mudhish, ko'ngilsiz fojialarga olib kelishi to'g'risida real voqealar, roliklar, fotosuratlar, tavsiya va ko'rsatmalar, e'lonlar, ogohlantirishlar keng yoritilib, fuqarolarga ehtiyotkor, ziyrak, mas'uliyatli bo'lish kerakligi tushuntirilmoqda.</p> <p>Targ'ibot tadbirlari samaradorligini oshirish uchun guruhlariga mahalla fuqarolar yig'ini raislari va faollari jalb etilgan.</p>
16.	Iste'molchilar o'rtasida tabiiy gazdan oqilona foydalanish bo'yicha targ'ibot tadbirlarini yanada kuchaytirish.	<p>1. Iste'molchilarga tabiiy gazdan oqilona foydalanishni tashkillashtirish hamda yoqilg'i-energetika resurslaridan samarali foydalanish lozimligi yuzasidan mahalliy hokimiyat va tegishli tashkilotlar bilan hamkorlikda ishlarni tashkillashtirib, “1 kub gazni tejang” shiori ostida targ'ibot tadbirlarini yanada kuchaytirish. Bunda, mahalliy ommaviy axborot vositalari - televideniye, radio va ijtimoiy tarmoqlar orqali suxbatlar, roliklar, maqolalar orqali keng jamoatchilikka tabiiy gazdan oqilona foydalanish, isrofgarchilikka yo'l qo'ymaslikka alohida e'tibor qaratish;</p> <p>2. Tabiiy gaz sarfini iqtisod qilish maqsadida kunning muayyan vaqtlarida iste'molchilardagi gaz jixozlarida rejim-sozlash ishlarini amalga oshirish hamda ma'nan</p>	Doimiy	<p>Boshqaruv raisining birinchi o'rinbosari (<i>Saidvaliyev</i>), Biznesni strategik rivojlantirish, investitsiya hamda tejamkor texnologiyalarni joriy etish va foydalanishni targ'ibot qilish bo'limi (<i>Rustamova</i>), Servis xizmatini rivojlantirish bo'limi (<i>Do'stov</i>), Jismoniy shaxslarga tabiiy gazni sotish boshqarmasi (<i>Vaxobov</i>), Matbuot kotibi (<i>Mametova</i>), <i>Hududiy gaz ta'minoti filiallari rahbarlari</i></p>	<p>Tabiiy gazdan maqsadli, oqilona foydalanish va iste'mol madaniyatini yanada oshirish hamda gazdan foydalanishda xavfsizlik qoidalariga qat'iy amal qilish lozimligi yuzasidan tegishli vazirlik va idoralar, mahallalardagi mavjud tizimlar bilan o'zaro hamkorlikda keng qamrovli targ'ibot tadbirlari o'tkazilib, iste'molchilarda ijtimoiy mas'uliyat ruhini shakllantirishga alohida e'tibor qaratildi.</p> <p>Xususan, “Hududgazta'minot” AJ va uning hududiy filiallarida hududlarning o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda mahalla faollari, faxriylar, taniqli madaniyat va san'at arboblari hamda jurnalist va blogerlar ishtirokida 6 243 ta targ'ibot materiallari axborot vositalari hamda ijtimoiy tarmoqlar orqali e'lon qilindi.</p> <p>Respublikadagi ommaviy axborot vositalari vakillari, jumalist va blogerlar ishtirokida 62 ta matbuot anjumanlari, brifing va press-turlar</p>

№	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Muddat	Mas'ullar	Amalga oshirilgan ishlar
		eskirgan gaz jihozlarini zamonaviy, energiya tejamkorlariga almashtirish yuzasidan targ'ibot tadbirlarini yanada kuchaytirish.			tashkil etildi. Normativ hujjatlar talablariga muvofiq, Jamiyat rasmiy hududgaz.uz veb-saytida faoliyatga doir 1 722 ta materillar e'lon qilindi.
17.	Tizim xodimlarining malaka va ko'nikmasini oshirish, ularda korporativ boshqaruv ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha tizimli ishlarni takshillashtirish.	1. Soha xodimlari, ayniqsa iqtidorli yosh va malakali mutaxassislarning malaka va ko'nikmasini oshirib, xalqaro standartlar bo'yicha o'quvini tashkil etish, seminar va xalqaro tadbirlarda ishtirokini ta'minlash; 2. Sohada iste'molchilarga to'g'ridan-to'g'ri xizmat ko'rsatuvchi xodimlarning muloqot madaniyatini oshirish hamda korporativ boshqarish ko'nikmalarini shakllantirish; 3. Tizimda kadrlar siyosatini yuritishda joriy etilgan raqamlashtirish jarayonlarini bosqichma-bosqich takomillashtirib borish.	2023 yil	Boshqaruv raising o'rinbosarlari (Saidvaliyev, Turdiyev, Turdibayev), Xodimlar boshqarmasi (Achilov), Hududiy gaz ta'minoti filiallari rahbarlari	Tizimda kadrlar siyosatini samarali yuritish, jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlarni ko'rib chiqishga alohida e'tibor qaratilishi natijasida, xodimlarning bilim va saviyasini oshirish uchun o'quv kurslari va amaliy mashg'ulot (trening)lar tashkil etish orqali 11 ming nafar (yillik rejaga nisbatan 290%) xodimlar malakasi oshirildi hamda 100 nafar xodimga sirtqi va kechki ta'lim shaklida to'lov-kontrakt asosida o'qishga qabul qilish uchun tavsiyanomalar berildi. Shuningdek, Italiyaning "Pietro Fiorentini" kompaniyasi bilan imzolangan memorandum doirasida, "HGT Training centre" o'quv markazi negizida zamonaviy va ilg'or texnologiyalarga asoslangan "Muhandislar maktabi" tashkil etish bo'yicha kelishuvga erishildi.
18.	Tizimda yashirin iqtisodiyot va korrupsiyaga qarshi kurashish hamda uning oldini olish.	1. Tizimda korrupsiyaga qarshi murossasiz kurashish, uni oldini olish va har bir noqonuniy xatti-harakatga jazo muqarrarligi yuzasidan uchrashuv va tushuntirish ishlarini tashkillashtirish; 2. ISO 37001:2016 korrupsiyaga qarshi boshqaruv tizimi doirasida o'quv seminarlarini tashkil etish, umumiy va yakka tartibda profilaktik tadbirlarni amalga oshirish;	Doimiy	Boshqaruv raising o'rinbosarlari (Saidvaliyev, Turdiyev, Turdibayev), Komplayens nazorat boshqarmasi (G'aniyev), Hududiy gaz ta'minoti filiallari rahbarlari	Komplaens nazorat boshqarmasi boshlig'i respublikaning Andijon, Farg'ona, Namangan, Toshkent, Sirdaryo, Jizzax, Samarqand, Buxoro, Navoiy, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlariga tashrifi uyushtirilib, yangi ishga qabul qilingan hodimlar bilan uchrashuvlar o'tkazildi va ularga o'quv kurslari tashkil etildi. Shuningdek, o'tgan davr mobaynida 6 418 nafar xodimlar bilan yakka tartibda va

№	Chora-tadbirlar nomi	Amalga oshirish mexanizmi	Muddat	Mas'ullar	Amalga oshirilgan ishlar
		<p>3. Jamiyatning ijtimoiy tarmoqlardagi rasmiy kanallari orqali har qanday ko'rinishdagi korrupsion holatlariga murosasiz kurashish doirasida maqola va videoroliklar e'lon qilib borish.</p>			<p>xodimlar ishtirokida 1 731 ta umumiy profilaktik ogohlantiruv va targ'ibot tadbirlari o'tkazildi.</p> <p>Bundan tashqari, Matbuot xizmati bilan xamkorlikda 351 ta materiallar: 35 ta teleko'rsatuv va videomaterial, 39 ta radioeshittiruv, ijtimoiy tarmoqlarda 273 ta targ'ibot materiallari tayyorlanib chop etildi ba mahalliy ekspert va mutaxassislar ishtirokida 4 marotaba tadbir o'tkazildi.</p>